



## XII. DEMOGRAFIK HOLAT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yilning 1 iyul holatiga viloyatning doimiy aholisining soni 1 457,7 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 14,3 ming kishiga yoki 1,0 foizga ko'paydi. Shundan, 684,2 ming kishi shahar joylarida (jami aholi sonining 46,9 %) va 773,5 ming kishi – qishloq joylarida (53,1 %) istiqomat qiladi.




**Jizzax viloyatining hududlari  
bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot  
(2022 yilning 1 iyul holatiga)**

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, foizda			Doimiy aholi sonining viloyatda ulushi, foizda		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq		shahar	qishloq
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1 457,7</b>	<b>684,2</b>	<b>773,5</b>	<b>102,3</b>	<b>102,7</b>	<b>102,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shahar:</i>									
Jizzax	189,3	189,3	-	103,9	103,9	-	13,0	27,7	-
<i>tumanlar:</i>									
Arnasoy	47,6	16,4	31,2	101,5	101,2	101,6	3,3	2,4	4,0
Baxmal	164,6	44,7	119,9	102,2	102,5	102,0	11,3	6,5	15,5
G'allaorol	180,6	63,2	117,4	102,2	101,9	102,3	12,4	9,3	15,2
Sharof Rashidov	233,5	93,0	140,5	101,8	102,6	101,2	16,0	13,6	18,2
Do'stlik	68,2	28,8	39,4	101,8	101,8	101,8	4,6	4,2	5,1
Zomin	173,0	82,3	90,7	102,3	102,3	102,4	11,8	12,0	11,7
Zarbdor	91,3	50,6	40,7	102,4	102,4	102,5	6,3	7,4	5,3
Zafarobod	52,1	23,7	28,4	102,1	101,7	102,5	3,6	3,5	3,6
Mirzacho'l	54,0	30,2	23,8	101,9	102,0	101,7	3,7	4,4	3,1
Paxtakor	78,3	37,9	40,4	102,5	101,9	103,0	5,4	5,5	5,2
Forish	96,0	17,8	78,2	101,7	101,7	101,7	6,6	2,6	10,1
Yangiobod	29,2	6,3	22,9	101,7	103,3	101,3	2,0	0,9	3,0



Viloyat doimiy aholisi soni tarkibida hududlar ulushi, % da  
(2022 yil 1 iyul holatiga)




Yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha aholining  
tabiiy harakati koeffitsiyentlari

Ko'rsatkichlar	Kishi soni		1000 aholiga nisbatan	
	2021 yil	2022 yil	2021 yil	2022 yil
Tug'ilganlar	18 446	18 330	26,2	25,5
Vafot etganlar	2 780	3 139	4,0	4,4
<i>shu jumladan:</i>				
bir yoshgacha bolalar	173	244	9,2	11,8
Nikohlar, mingta	4 657	4 148	6,6	5,8
Ajralishlar, mingta	619	827	0,9	1,1

**Tug'ilish.** 2022 yilning yanvar-iyun oylarida tug'ilganlar soni 18 330 kishini tashkil etdi va 2021 yilning shu davriga (18 446 kishi) nisbatan minus 116 kishiga kamaydi, shunga mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti 25,5 promilleni tashkil qildi.

Tug'ilish koeffitsiyentining sezilarli ko'payishi Jizzax shaharda (22,5 promilledan 30,2 promillegacha), Mirzacho'l (17,7 promilledan 20,1 promillegacha), Yangiobod (19,3 promilledan 20,3 promillegacha) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti**  
2022 yilning yanvar-iyun holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille)




**O‘lim.** 2022 yilning yanvar-iyun oylarida o‘lganlar soni 3 139 kishini tashkil qildi va 2021 yilning shu davriga (2 780 kishi) nisbatan 359 kishiga ko‘paydi, mos ravishda o‘lim koeffitsiyenti 4,4 promilleni tashkil qildi (2021 yil yanvar-iyunda 4,0 promille bo‘lgan).



O‘lim koeffitsiyentining sezilarli o‘sishi Baxmal (4,4 dan 5,1 promillegacha), G‘allaorol (4,4 dan 5,5 promillegacha), Zomin (4,0 dan 6,3 promillegacha) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

O‘lim darajasining eng past ko‘rsatkichi Sharof Rashidov (2,7 promille), Jizzax shaharda (3,4 promille) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Hududlar kesimida o‘lganlar soni va koeffitsiyenti**  
2022 yilning yanvar-iyun holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille)



O'lganlar umumiy sonidan 36,7 foizi – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,2 foizi – o'sma kasalliklaridan, 10,3 foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlardan, 4,5 foizi – ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan, 28,6 foizi – nafas olish organlari kasalliklaridan, 1,4 foizi – infeksiyon va parazitlar kasalliklaridan, 11,3 foizi – boshqa kasalliklardan vafot etgan.




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yilning yanvar-iyun oylarida 244 nafar bir yoshgacha bolalar o'limi qayd etilgan. Go'daklar o'limi koeffitsiyenti 11,8 promilleni (2021 yil yanvar-iyunda 9,2 promille bo'lgan) tashkil qildi.

Bir yoshgacha o'lgan bolalarning umumiy sonidan 13,9 foizi perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 58,6 foizi – nafas olish organlari kasalliklaridan, 4,1 foizi – tug'ma anomaliyalardan, 0,5 foizi – infeksiyon va parazit kasalliklaridan, 2,5 foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlardan va 20,4 foizi – boshqa kasalliklardan vafot etgan.

**Nikohlar va ajralishlar.** 2022 yilning yanvar-iyun oylarida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida 4 148 ta nikohlar va 827 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,8 ni (2021 yilning yanvar-iyunda 6,6 bo‘lgan) va nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,1 ni (2021 yilning yanvar-iyunida 0,9 bo‘lgan) tashkil etgan.

**2022 yilning yanvar-iyun oyida viloyat bo‘yicha tuzilgan nikoh koeffitsiyenti**



Tuzilgan nikohlar soni 2022 yilning mos davriga nisbatan ayrim hududlarda sezilarli ko‘payish kuzatilgan. Bunda eng yuqori ko‘payish sur‘ati Baxmal (108,8 %) tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.




Hududlarda yanvar-iyun oylarida tuzilgan nikohlar  
va nikohdan ajralishlar soni

(kishida)

	Tuzilgan nikohlar		Nikohdan ajralishlar	
	2021 yil	2022 yil	2021 yil	2022 yil
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>4 657</b>	<b>4 148</b>	<b>619</b>	<b>827</b>
<i>shahar:</i>				
Jizzax	619	639	95	133
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	124	102	18	28
Baxmal	420	457	57	83
G'allaorol	599	519	78	102
Sharof Rashidov	852	688	98	127
Do'stlik	197	165	25	28
Zomin	597	559	69	97
Zarbdor	328	276	40	39
Zafarobod	154	148	30	32
Mirzacho'l	133	121	19	36
Paxtakor	288	234	35	57
Forish	263	193	37	48
Yangiobod	83	47	18	17

**Hududlar kesimida nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti**  
(2022 yil yanvar-iyun)



Ajrimlar sonini 2021 yilning mos davriga nisbatan taqqoslanganda, yuqori o'sish sur'ati Jizzax shahrida (140,0%), Baxmal (145,6 %), Zomin (140,6 %), Sharof Rashidov (129,6 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Ajrimlar sonining eng past ko'rsatkich Yangiobod (94,4 %) tumaniga to'g'ri kelmoqda.





Yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy oʻsishi  
soni va koeffitsiyenti

(kishi)

	Kishi soni		1 000 aholiga nisbatan	
	2021 yil	2022 yil	2021 yil	2022 yil
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>15 666</b>	<b>15 191</b>	<b>22,3</b>	<b>21,1</b>
<i>shahar:</i>				
Jizzax	1 662	2 498	18,5	26,8
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	449	427	19,4	18,1
Baxmal	2 100	1 724	26,4	21,2
Gʻallaorol	2 075	1 798	23,8	20,1
Sharof Rashidov	2 741	2 609	24,3	22,6
Doʻstlik	598	578	18,1	17,1
Zomin	2 174	1 788	26,1	21,0
Zarbdor	1 031	953	23,5	21,2
Zafarobod	547	511	21,7	19,9
Mirzachoʻl	375	420	14,3	15,8
Paxtakor	820	789	21,7	20,5
Forish	871	860	18,7	18,1
Yangiobod	223	236	15,7	16,4

**Migratsiya.** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yilning yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3 455 kishi, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 4 372 kishi tashkil qildi. Mos ravishda migratsiya qoldig'i minus 917 kishi tashkil etgan, 2021 yilning mos davrida minus 1 270 kishi bo'lgan.



Yanvar-iyun oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(kishi)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosi	
	2021 yil	2022 yil	2021 yil	2022 yil	2021 yil	2022 yil
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>5020</b>	<b>3455</b>	<b>6290</b>	<b>4372</b>	<b>-1270</b>	<b>-917</b>
<i>shahar:</i>						
Jizzax	1107	726	1089	799	18	-73
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	164	90	277	195	-113	-105
Baxmal	259	159	641	447	-382	-288
G'allaorol	233	192	601	422	-368	-230
Sharof Rashidov	1252	861	823	514	429	347
Do'stlik	273	132	394	271	-121	-139
Zomin	356	240	491	363	-135	-123
Zarbdor	330	231	387	233	-57	-2
Zafarobod	254	129	276	159	-22	-30
Mirzacho'l	267	244	293	226	-26	18
Paxtakor	323	278	472	301	-149	-23
Forish	135	106	426	321	-291	-215
Yangiobod	67	67	120	121	-53	-54

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Baxmal (minus 288 kishi), G'allaorol (minus 230 kishi), Forish (minus 215 kishi) Do'stlik (minus 139 kishi) tumanlarida qayd etildi. Migratsiyaning ijobiy saldosini Sharof Rashidov tumani (347 kishi) kuzatildi.